

## HADYA SHARNOMASI VA XAYR-EHSON

Allaberdiyeva Gulbahor Shavkat qizi

*Termiz Davlat Universiteti*

*Yuridik Fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hadya sharnomasi tushunchasi, predmeti, shakli , huquqiy belgilari, hadya oluvchining hadyani qabul qilishni rad etish holatlari, hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortish holatlari, shartnomada qatnashuvchi taraflar, ularning huquq va majburiyatlar, hadyaning shartnomasining boshqa shartnomalardan farqli jihatlari, hadya bo'yicha huquqiy vorislik, hadyani bekor qilish va xayr-ehson shartnomasi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** hadya sharnomasi, shartnomada predmeti, hadyani bekor qilish, taraflarning huquq va majburiyatlar, xayr-ehson.

Hadya ishonch va do'stlik ifodasi sifatida beriladigan moliyaviy yoki boshqa turdag'i ashyolar, ko'char va ko'chmas mulklar hisoblanadi. Hadya insonlar o'rtasida do'stlik aloqalarini kuchaytirish, ishonchni mustahkamlash uchun beriladi.

Hadya shartnomasi birinchi marta Rim huquqida eslatib o'tilgan, bu yerda hadya mulk huquqining paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan.

Hadya shartnomasi, hadyani berish va uni qabul qilish jarayonlarini belgilovchi yuridik hujjat hisoblanadi. Hadya shartnomasiga O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 502-moddasida bat afsil ta'rif berilgan. Hadya shartnomasiga muvofiq bir taraf (hadya qiluvchi) boshqa taraf (hadya oluvchi) ga ashyoni tekinga mulk qilib beradi yoki berish majburiyatini oladi yoxud unga o'ziga yoki uchinchi shaxsga nisbatan mulk huquqi (talabi) ni beradi yo berish majburiyatini oladi, yoxud uni uchinchi shaxs oldidagi mulkiy majburiyatdan ozod qiladi yoinki ozod qilish majburiyatini oladi. Hadyaning asosiy mohiyati shundaki, bunda mulk tekinga topshiriladi, ya'ni hadya qiluvchining tasarrufidagi ashyo hadya oluvchiga mol- mulk qilib o'tkaziladi. Hadya shartnomasi real shartnomada bo'lsa-da, ayni damda hadya qiluvchi hadya oluvchiga kelgusida hadya qilish majburiyatini oladi.

Hadya shartnomasi quyidagi huquqiy belgilari bilan xarakterlidir: bir taraflama, real, tekinga tuziladigan shartnomadir. Hadya bir taraflama bitim bo'lib taraflarning o'zaro kelishuviga asoslanadi. Hadya shartnomasi ba'zi jihatlari bilan boshqa shartnomalardan farq qiladi. Hadya shartnomasining qarz shartnomasidan farqli belgisi, hadya sharnomasida hadya oluvchining

taklif qilingan mulkiy huquqni qabul qilishga rozilik berishida ifodalandi. Mulk hadya qiluvchining tirikligida topshirilish kerakligi belgisi bilan vasiyatnomadan farq qiladi. Fuqarolik qonunchiligidagi hadyani hadya oluvchiga hadya qiluvchining vafotidan keyin topshirilishini nazarda tutuvchi shartnama tan olinmaydi.

Hadya shartnomasining predmeti bo'lib fuqarolik muomalasidagi obyektlar: ashyolar, mulkiy huquqlar, ko'char va ko'chmas mulklar hisoblanadi. Shartnomada hadya predmeti aniq ko'rsatilishi kerak. Noma'lum ashyolarni hadya qilishga yo'l qo'yilmaydi, chunki ular hech qanday huquqiy ahamiyatga ega emas.

Hadya shartnomasining shakli uning mazmunidan kelib chiqadi. Hadya qilish, ayni paytda hadyani hadya oluvchiga topshirish og'zaki amalga oshirilishi mumkin. Ammo, FK ning 504-moddasi uchinchi va beshinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar mustasno. Chunki, ko'char mulkni hadya qilish shartnomasi qonunchilikda belgilangan ba'zi hollarda oddiy yozma shaklda tuzilishi, ko'chmas mulkni hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Hadya shartnomasida qatnashuvchi taraflar hadya beruchi va hadya oluvchi hisoblanadi. Birinchi taraf (hadya beruvchi) ixtiyoriy ravishda tegishli mulkni o'zidan soqit qiladi, ikkinchi taraf(hadya oluvchi) esa bu mulkni egallaydi. O'z navbatida shartnama taraflari fuqarolar, yuridik shaxslar hamda davlat bo'lishi mumkin. Hadya fuqarolik -huquqiy xarakterdagi shartnama bo'lgani uchun hadya qiluvchi ham hadya oluvchi ham muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak. Ba'zi hollarda muomala layoqatiga ega bo'lмагan shaxslar nomidan shartnomalarni ularning qonuniy vakillari tuzadi. Hadya oluvchi o'ziga hadya topshirilguniga qadar istagan vaqtida rad etishga haqli. Bu holatda hadya shartnomasi bekor qilingan hisoblanadi. Hadya shartnomasi yozma shaklda tuzilgan bo'lsa, hadyani rad etish ham yozma shaklda amalga oshiriladi. Agar shartnama ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, hadyani qabul qilishni rad etish ham ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Agarda, hadya shartnomasi tuzilganidan so'ng hadya qiluvchining moddiy ahvoli yomonlashsa, u kelajakda hadya oluvchiga ashyoni yoki mulk huquqini berish yo bo'lmasa, uni mulkiy majburiyatdan ozod etish va'da qilingan shartnomani bajarishdan bosh tortishga haqli. Yuqoridagi asoslarga ko'ra hadya qiluvchining hadya shartnomasini bajarishdan bosh tortishi hadya oluvchiga zarani qoplashni talab qilish huquqini bermaydi.

Hadya oluvchi hadya qiluvchining, uning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlarining hayoti yoki sog'lig'iqa qarshi ataylab, jinoyat sodir qilgan hollarda hadyani bekor qilishga sud tartibida yo'l qo'yiladi. Agar hadya oluvchi

hadya qiluvchidan oldin vafot etsa, hadya qiluvchi hadya bekor qilishi huquqi shart qilib qo'yilishi mumkin.

Hadya shatnomasining o'ziga xos jihatlaridan biri bu hadya va'da qilinganda huquqiy vorislik hisoblanadi. Fuqarolik kodeksi 510-moddasining mazmuniga ko'ra, hadya shartnomasiga muvofiq hadya va'da qilinganda hadya oluvchining huquqlari uning merosxo'rлari (huquqiy vorislari)ga o'tmaydi, hadya berishni va'da qilgan shaxsning majburiyatlari esa uning merosxo'rлariga (huquqiy vorislari)ga o'tadi.

Umumfoydali maqsadlar uchun qilingan hadya xayr-ehson hisoblanadi. Xayr-ehson keng ommaning umumfoydali maqsadlarini amalga oshirish uchun qilinadi. Xayr-ehson ayni shu jihat bilan hadyadan farq qiladi. Xayr-ehson asosan notijorat subyektlarga ya'ni davolash, tarbiya, ijtimoiy himoya muassasalariga, fondlarga, xayriya, ilmiy va o'quv muassasalariga jamoat birlashmalar, muzeylar, diniy tashkilotlar va boshqa fuqarolik huquqi subyektlariga shuningdek, davlatga qilishni mumkin. Xayr-ehsonning predmeti fuqarolik muomalasida bo'lgan obyektlar bular: pullar, qimmatli qog'ozlar, mol-mulklar, ashyolar, binolar, inshoatlar, avtomobillar va boshqalar bo'lishi mumkin. Xayr-ehson qabul qilishda biron kishining ruxsati yoki roziligi talab etilmaydi.

Xayr-ehson qilingan mulkdan xayr-ehson qiluvchi ko'rsatgan maqsadda foydalanmaslik kelgusida xayr-rhson qiluvchga, uning merosxo'rлariga yoki boshqa huquqiy vorislariha xayr-ehsonni bekor qilishni talab qilish huquqini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.T.2023
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. 2-qism. Mualliflar jamoasi.T.2019